Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashi
Q A R O R I

2023 - yil 30 - may VI-85-103-2-40-K/23 Romitan tuman hokimligi

Romitan tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 213-son qaroriga asosan Romitan tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov miqdorini belgilash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buxoro viloyati hokimligining 2023 yil 8 apreldagi 12-102-sonli xati hamda ishchi guruhining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini saqlash bo‘yicha yuridik shaxslar tomnidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun (iste’molchilar tomonidan to‘lanadigan) to‘lovning eng yuqori cheklangan miqdori bo‘yicha taklif etiladigan tariflari inobatga olinsin.

2. Tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun yig‘imlar miqdori ilovaga muvofiq belgilansin.

3. Romitan tumani hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Ochilov hamda tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.G‘aybullayevga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-iyuldagi “Avtomototransport vositalarini

doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 213-son qarori asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni tasdiqlangan yig‘im miqdorlari bilan tanishtirib, belgilan tartiblar bo‘yicha faoliyat yuritilishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

4. “Romitannoma” gazetasi (M.Atoyeva) va tuman hokimligining matbuot xizmati (I.Sattorov) mazkur qarorni gazetada hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga rasmiy e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Ismatov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **Barnoyev U. I.**

Xalq deputatlari Romitan tuman
Kengashining
2023 yil 30 maydagi
VI-85-103-2-40-K/23-son qaroriga
1-ilova

Romitan tumanida avtotransport vositalarini saqlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to’lovlar miqdori

Avtotransport turi	To’xtash muddati	To’lov miqdori
Yengil avtomobil uchun	Bir soatgacha	3 000
	Bir soatdan ko’p	4 000
	Bir kunda	8 000
Yuk avtomobil uchun	Bir soatgacha	5 000
	Bir soatdan ko’p	7 000
	Bir kunda	14 000
Motorollerlar uchun	Bir soatgacha	1 000
	Bir soatdan ko’p	2 000
	Bir kunda	3 000